**Neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi**
**ShARTNOMA**

"*19*" yanvar 2022 y. № 41 Navoiy shahri

"Mahsulot yetkazib beruvchi" deb ataluvchi "Navoiy neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan unga 2021 yil 30 dekabrda berilgan 01-12/01-1507-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Sotish bo'limi boshlig'i G'.Esanov bir tomondan va «Iste'molchi» deb ataluvchi Nurota tuman SEO va JSB nomidan asosida ish yurituvchi O.Z.Normurodov ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Iste'molchi"ning buyurtmaciga muvofiq tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, "Iste'molchi" esa neft mahsulotlari uchun oldindan haqini to'lab qabul qilib olish majburiyatlarini o'z zimmalariga oladi.

1.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari miqdori, bahosi va muddatlari quyidagi jadvalda belgilab qo'yiladi.

| Mahsulotning nomi | O'lchov birligi | Narxi (qo'shimcha qiymat solig'i bilan) | Miqdori | Summasi | Yetkazib berish davri |
|---|---|---|---|---|---|
| AI-80 | tonna | 9 688 761 | 0.360 | 3 487 953.96 | |

## 2. MAHSULOTNI YETKAZIB BERISh VA QABUL QILISh TARTIBI

2.1 "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning hisob raqamiga "Iste'molchi"ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun oldindan 100 foiz to'lovlar kelib tushgandan so'ng neft mahsulotlari yetkazib beriladi.

2.2 "Iste'molchi"da neft mahsulotlarini saqlash uchun idoraviy neft ombori hamda neft mahsulotlarini tashish uchun maxsus avtotransport vositasi mavjud bo'lsa, bunday iste'molchilarga neft mahsulotlari ularning avtotransportiga yuklab yuborish orqali yetkazib berilishi mumkin. Bunday hollarda maxsulotni topshirish va qabul qilish "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning neft omborida amalga oshiriladi. Mahsulot "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning omboridan "Iste'molchi"ning vakili tomonidan transport vositasida olib ketilganda tovar-transport xujjatlari rasmiylashtirilgan sana "Mahsulot yetkazib beruvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Iste'molchi"ning maxsus avtotransport vositasi va sig'imi "Havfli yuklarni tashish qoidalari"ga hamda 1510-84 sonli Davlat standarti shartlariga muvofiq jihozlangan bo'lishi lozim. Aks holda avtotransport vositalari neft ombori hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlari quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bush kelib-ketishi uchun "Mahsulot yetkazib beruvchi" javobgar bo'lmaydi.

2.3 Neft mahsulotlari "Iste'molchi"ga uning vakili kuzatuvida "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning maxsus transport vositasida yetkazib berilsa, avtosig'im qopqog'i GOST 1510 asosida "Iste'molchi" vakilining talabiga muvofiq tamg'alanadi. Mahsulotni topshirish va qabul qilish "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning neft omborida amalga oshiriladi. Tovar-transport naqliyoti rasmiylashtirilgan sana "Mahsulot yetkazib beruvchi" tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

2.4 Neft mahsulotlari "Mahsulot yetkazib beruvchi"ga tegishli bo'lgan yonilg'i tarqatish shahobchasi orqali yetkazib berilsa, buning uchun "Iste'molchi"ning ishonchnomasiga muvofiq mahsulotni yoqilg'i tarqatish shaxobchasidan olish to'g'risida ruxsatnoma rasmiylashtiriladi. Mazkur ruxsatnoma "Iste'molchi"ning vakili tomonidan yonilg'i tarqatish shahobchasiga taqdim qilinadi. Shaxobcha operatori o'z navbatida tarqatish varaqasi yuritadi. "Iste'molchi" vakiliga berilgan mahsulot miqdori tarqatish varaqasiga kiritib boriladi. Tarqatish varaqasida "Iste'molchi"ning vakilining mahsulotni miqdoran to'liq olganligi to'g'risida imzo qo'yilgan sana, «Mahsulot yetkazib beruvchi» tomonidan shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

2.5 «Xaridor»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtda mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi. Maxsulot yuklangan avtotransport vositasi "Xaridor" vakili kuzatuvida "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning neft ombori xududidan chiqarilgandan so'ng mahsulot miqdori va sifati bo'yicha javobgarlik va mahsulotga egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft maxsulotlariga ziyon yetish xavfi "Xaridor" zimmasiga o'tadi. "Xaridor" vakili kuzatuvida olib ketilgan maxsulot miqdori va sifati bo'yicha e'tiroz qabul qilinmaydi.

## 3. O'ZARO HISOB - KITOB TARTIBI VA NARXLARI

3.1 Shartnomaning umumiy summasi (3487953.96) so'mni tashkil qiladi.
-to'lovlar quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:
Budjet mablag'lari hisobidan 3 487 953.96 (uch million to'rt yuzi sakson yeti ming toqqiz yuz ellik uch ming so'mi to'qqson olti tiyin) so'm;
Maxsus hisob raqamdan

3.2 Ushbu shartnoma mahsulot yetkazib berish va o'zaro xisob–kitoblar uchun asos bo'ladi.

3.3 Budjet tashkilotlariga, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklariga va paxta-to'qimachilik klasterlariga, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "Toshshaxartransxizmat" AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat korxonalari (iste'molchilarning ayrim toifalari)ga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlarida sotiladi.

3.4 dizel yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg'isi) o'rnatilgan tartibda birja savdolari natijalariga Ushbu shartnomaning 3.3. bandida nazarda tutilgan ayrim toifadagi iste'molchilardan tashqari boshqa iste'molchilarga mahsulot yetkaazib berilishi sanasida neft bazada shakllangan sotish narxida mahsulot yetkazib beriladi.

3.5 "Iste'molchi" neft mahsulotlarining xarid qilinadigan partiyasi uchun haqini oldindan 100 foiz miqdorda «Mahsulot yetkazib beruvchi»ning xisob-raqamiga to'laydi. Oldindan to'lov pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Pul mablag'i "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning hisob raqamiga kelib tushgach mahsulot yetkazib beriladi.

3.6 Mazkur shartnomada shartnoma tuzilishi jarayonida va sanasida amalda bo'lgan narxi qo'llanilgan bo'lib, o'zaro hisob kitoblar maxsulotni "Iste'molchi"ga yetkazib berilishi sanasida amalda bo'lgan narxlarda amalga oshiriladi.

3.7 Har oyning yakuni bo'yicha o'zaro hisob kitoblarni taqqoslash uchun "Iste'molchi" vakilini "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning huzuriga yuboradi. Yakuniy hisob kitoblar uchun schet-faktura asos bo'ladi.

## 4. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

4.1 «Mahsulot yetkazib beruvchi» «Xaridor» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neftmahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifatiga oid ma'lumotlar mahsulot yetkazib berilishi jarayonida taqdim qilinadigan sifat pasportida qayd etiladi. Mahsulot Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi lozim.

4.2 Neft mahsulotlarini olishda«Xaridor» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Agar yetkazib berilgan neft mahsulotlarining sifati, assortimenti, navlari standart texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan takdirda, «Mahsulot yetkazib beruvchi» sifati zarur darajada bo'lmagan neft mahsulotlari kiymatining 5 foizi mikdorida jarima to'laydi.

5.2 Neft mahsulotlarini yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan takdirda «Mahsulot yetkazib beruvchi» «Iste'molchi»ka kechiktirilgan xar bir kun uchun majburiyat bajarilmagan kismining 0,5 foizi mikdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan neft mahsulotlari kiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.3 "Iste'molchi" ga yetkazib berilgan neft mahsulotlarini tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda mahsulotni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun "Iste'molchi" "mahsulot yetkazib beruvchi"ga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) mahsulotlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Mahsulotlar tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, "mahsulot yetkazib beruvchi" jarima undirishdan tashqari, ushbu mahsulotlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) mahsulot lar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

ктрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, ҳужжат коди: KX05306822

4 Yetkazib berilgan neft mahsulotlari uchun o'z vaktida haq tulamaganda «Iste'molchi» «Mahsulot yetkazib :ruvchi»ga muddati kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi mikdorida penya 'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5 Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik va boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil ) avgustdagi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunga ımda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021 yildagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan komillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmonining 3-qism v) bandiga muvofiq:

- har bir tomon, shu jumladan barcha xodimlar, vakillar, shuningdek ular tomonidan jalb qilingan yoki ular ɔmidan ish olib boradigan boshqa shaxslar, boshqa tomonga, uning xodimlariga, vakillariga, potensial yoki mavjud ;ijozlarga va har qanday tegishli Hamkorlariga, shuningdek, boshqa tomon tomonidan jalb qilingan yoki uning ɔmidan ish yuritadigan boshqa shaxslarga ("Ishtirokchi Tomonlar") moddiy/nomoddiy rag'batlantirish, manfaat, ɪqdirlash, takliflar (shu jumladan, cheklanmagan holda, har qanday to'lov shakli, sovg'alar va boshqa mulkiy ntiyozlar, mukofotlar va manfaat (pul yoki har qanday qiymat ko'rinishida)) bermaslikni ya'ni, moliyaviy mukofot, ıulk, mulk huquqini taklif qilmaslikni, bermaslikni kafolatlaydi va shunga majbur.

- bir taraf korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari, korrupsiya bo'yicha qo'llaniladigan Siyosat va ɔidalar talablari buzilgan taqdirda, boshqa tarafni yozma ravishda xabardor qilgan holda bu Shartnomani bekor ilishga haqli. Ikkinchi tarafga tegishli bildirishnoma yuborgan paytdan boshlab Shartnoma bekor qilingan isoblanadi. Bunday holda, birinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni qoplaydi.

### 6. FORS-MAJOR HOLATLARI VA JAVOBGARLIKDAN OZOD ETISh

.1 Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik a boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko'zlab import va eksportni aqiqlash va boshqalar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda tomonlarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish ɪnkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar sodir bo'lganligi, shuningdek Qonun va qonun osti xujjatlarining qabul qilinganligi tufayli bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi ujjatlar asosida isbotlansa javobgarlik sanksiyalari qo'llanilmaydi.

.2 Ushbu shartnoma shartlarini bajarishga to'sqinlik kiluvchi fors-major holatlarining boshlanishi va tugashi ɔ'g'risida tomonlar zudlik bilan bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

.3 Fors-major holatlari bo'yicha kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chikkan takdirda tomonlar, koidaga o'ra, mustakil ravishda yoki tuman (shaxar)lar xokimliklari xuzurida tashkil etiladigan yengib bo'lmaydigan kuch olatlari (fors-major)ni tasdiklash bo'yicha komissiya ishtirokida ularni sudgacha xal etish chora-tadbirlarini o'radilar

### 7. NIZOLARNI XAL ETISh TARTIBI

.1 Mazkur shartnoma bo'yicha kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chikkan takdirda, taraflar qoidaga ko'ra, ıustakil ravishda ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar, jumladan yozma tarzda e'tiroz xati yuborish shart. lzog'i bilan bir oylik muddat ichida e'tiroz xati rad etilsa yoki e'tiroz xati javobsiz qoldirilsa kelishmovchilik va izolar javobgar joylashgan joydagi iqtisodiy sudda xal kilinadi.

### 8. ShARTNOMANING AMAL QILIShI

.1 Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligi, g'aznachilik boshqarmasi (bo'limi)da qayd tilishi shart bo'lsa, g'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan yuridik kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabr unining yakuniga qadar amalda bo'ladi.

### 9. YAKUNIY QOIDALAR

.1 Mazkur shartnoma taraflarning kelishuviga ko'ra yoki bir taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan ıkdirda, ikkinchi tarafning talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin. Shartnoma qonun va qonun osti ujjatlarining qabul qilinganligi tufayli bir tomonlama "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning tashabbusi bilan bekor ilinishi mumkin.

9.2 Mazkur shartnomaga xar kanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda kiritiladi.

9.3 Shartnoma ikki nusxada tuzilib, taraflarda bir nusxadan saqlanadi va ikkala nusxalari ham teng yuridik kuchga egadir.

### 10. Tomonlarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va imzolari:

**"Mahsulot yetkazib beruvchi"**

**Navoiy shahri, Lermontov ko'chasi 4 uy**
**H/s: 22604000000306107702**
**"ATB "Sanoatquirilishbank Toshkent shahar Yashnobod filiali**
**MFO: 00432, STIR:200002538**
**Tel. raqami: Sotish bo'limi78-770-36-43;**
**Buxgalteriya 78-770-34-04.**

**G'.Esanov**

**" Iste'molchi"**

**Manzili: Nurota tuman SEO va JSB U.Yusupov 12 uy**
**Tel. Raqami : 79-523-18-06**
**H/s:100022860122387074110054002**
**Markaziy bank Toshkent**
**MFO: 00014**
**STIR: 200030947**
**XXTUT: 91531**

**O.Z.NORMURODOV**

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA
**№**

1. **Loyihaning turi**

   Shartnoma

2. **Loyihaning nomi**

   "Neft mahsulotini yetkazib berish to'grisida"gi 41-sonli shartnoma

3. **Loyiha ishlab chiquvchi tashkilot va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.**

   Nurota tuman SEO va JS bo'limi 19.01.2022 yil

Nurota tuman SEO va JS bo'limi bilan "Navoiy neft bazasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida imzolangan mazkur shartnoma amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq.

**Bosh yuriskonsult**

**Sh.Soliyev**
**20.01.2022 yil**